



UDK: 930.2(575).903.4(32.35.547)

*Guljaxon SHAYDULLAYEVA,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail: shaydullayeva87@list.ru*

*Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD O.Xamidov taqrizi asosida*

### O‘ZBEKISTON HUDUDIDAN TOPILGAN QADIMGI SHARQ MADANIYATLARIGA OID MANBALAR.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston va unga qo‘shni hududlardan topilgan Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari – Mesopotamiya, Eron va Xarappa madaniyatlariga xos ashyoviy manbalar yoritilgan. Arxeologik topilmalar tarkibidagi mineral va xomashyo turlari (lazurit, xlorid tosh, argelit, alebastr, fayans, fil suyagi va boshqalar) ularning kelib chiqishi va tarqalish geografiyasi asosida tahlil qilingan. Tepe Yaxyo, Shahri So‘hta, Asmara, Jamdet Nasr, Xarappa va Mesopotamiya shaharlari bilan O‘rta Osiyo hududlari o‘rtasida miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda mavjud bo‘lgan madaniy va savdo aloqalari ashyoviy dalillar asosida ochib berilgan. Maqolada Farg‘ona, Zarafshon va Toshkent vohalaridan topilgan topilmalarning texnologik va stilistik jihatlari qiyosiy o‘rganilib, ularning Qadimgi Sharqning “birinchi sivilizatsiya” aholisi bilan bog‘liqlik darajasi aniqlangan. Umuman, tadqiqot O‘rta Osiyo hududlarining qadim sivilizatsiyalar bilan erta davrlardayoq bog‘lanishini isbotlaydigan muhim materiallar asosida xalqaro madaniy munosabatlarning ilk shakllari haqida xulosa beradi.

**Kalit so‘zlar:** Qadimgi Sharq, Mesopotamiya, Eron, Xarappa madaniyati, O‘rta Osiyo, lazurit, xlorid tosh, argelit, fayans, fil suyagi, Tepe Yaxyo, Shahri So‘hta, arxeologik topilmalar, madaniy aloqalar, bronza davri, savdo yo‘llari.

### SOURCES RELATED TO THE ANCIENT NEAR EASTERN CULTURES FOUND IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN

Annotation

This article examines material sources related to the ancient civilizations of the Near East – Mesopotamia, Iran, and the Harappan culture – discovered in Uzbekistan and neighboring regions. Various minerals and raw materials identified in archaeological finds (lapis lazuli, chlorite, argillite, alabaster, faience, ivory, etc.) are analyzed with regard to their origin and distribution. Material evidence highlights cultural and trade connections that existed between Central Asia and the urban centers of Mesopotamia, Harappa, Shahr-i Sokhta, Asmar, and Jemdet Nasr during the 3rd–2nd millennia BC. The technological and stylistic features of artifacts found in the Fergana Valley, Zarafshan Valley, and the Tashkent oasis are examined comparatively, allowing the determination of their cultural association with the populations of the Early Eastern “first civilization.” Overall, the study concludes that the territories of Central Asia were integrated into early forms of long-distance cultural and commercial interactions with ancient civilizations.

**Key words:** Ancient Near East, Mesopotamia, Iran, Harappan culture, Central Asia, lapis lazuli, chlorite, argillite, faience, ivory, Tepe Yahya, Shahr-i Sokhta, archaeological artifacts, cultural interactions, Bronze Age, trade routes.

### ИСТОЧНИКИ, ОТНОСЯЩИЕСЯ К КУЛЬТУРАМ ДРЕВНЕГО ВОСТОКА, НАЙДЕННЫЕ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье рассмотрены вещевые источники, относящиеся к цивилизациям Древнего Востока – Месопотамии, Ирана и Харappy, обнаруженные на территории Узбекистана и сопредельных регионов. Проанализированы минералы и виды сырья (лазурит, хлорит, аргиллит, алебастр, фаянс, слоновая кость и др.), встречающиеся в археологических находках, а также их происхождение и география распространения. На основе материальных данных раскрыты культурные и торговые связи, существовавшие между регионами Центральной Азии и городами Месопотамии, Харappy, Шахри-Сохта, Асмара, Джемдет-Насра в III–II тысячелетиях до н.э. В статье сравнительно изучены технологические и стилистические особенности находок из Ферганы, Зарафшана и Ташкентского оазиса, что позволило определить степень их взаимосвязи с населением «первой цивилизации» Древнего Востока. В целом исследование делает вывод об устойчивых культурных контактах и ранних формах международных отношений между Центральной Азией и древнейшими цивилизациями.

**Ключевые слова:** Древний Восток, Месопотамия, Иран, культура Харappy, Центральная Азия, лазурит, хлорит, аргиллит, фаянс, слоновая кость, Теpe Яхья, Шахри-Сохта, археологические находки, культурные связи, бронзовый век, торговые пути.

Qadimgi Sharq dunyosi – Mesopotamiya shaharlari va qishloqlariga Eron va O‘rta Osiyodan har xil xomashyolarning borganligi Ubayd madaniyati, ya‘ni miloddan avvalgi V - IV ming yillikdan boshlab tarqalganligi ma‘lum. Ayniqsa bu aloqalar Mesopotamiyaning shimoliy mintaqasida joylashgan Tepe Gavra yodgorligi misolida yoqqol ko‘zga tashlanadi. Tepe Gavra yodgorligidan topilgan muhr va tamg‘alar Mesopotamiya hududlariga xos bo‘lmagan, tashqaridan olib kelingan steatit, serpantin, agat, serdolik va lazurit kabi

toshlardan yasalgan.[1] Bizni qiziqtiradigan ma‘dan lazurit bo‘lib, uning makoni Baqtriyada joylashgan. G.Xermanning fikricha Badaxshon lali yagonaligi bilan xarakterlanadi va Buyuk Xuroson yo‘li orqali tarqalgan. [2].

So‘nggi ma‘lumotlarga qaraganda Eron hududida joylashgan Shahri So‘hta yodgorligidan olingan lal toshlar kolleksiyalarining ximik tarkibi bo‘yicha aytish mumkinki, Shahri So‘hta manzilgohiga lal ma‘dani eng kamida uchta kondan keltirilgan, negaki lal toshlarning ximiyaviy tarkibi

uch xil bo'lib, ular har xil konlardan olib kelinganligidan habar beradi. Bu konlar hozirgi ma'lumotlar bo'yicha aytadigan bo'lsak, Pokiston hududidagi Chag'ay, Tojikistondagi Pomir va Badaxshondagi lal ma'dan konlari toshlaridir[3]. Shahri So'hta yodgorligiga masofa jihatidan eng yaqini Chag'ay tog'idir.

Miloddan avvalgi III ming yilliklarda qadimgi sharqliklar – shumerliklar, xarappaliklar, qadimgi Eron ma'danchilari konlar izlab hozirgi O'rta Osiyo hududlarida yurishganligi tarixiy haqiqatga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham O'rta Osiyoning deyarli barcha tarixiy hududlaridan “birinchi sivilizatsiya” vakillari qoldirgan ashyoviy manbalar uchraydi.

O'tgan asrning 30 yillarida Farg'ona vodiysi So'x qishlog'idan topilgan, qoramtir xlorid toshdan yasalgan, oq toshlar bilan bezatilgan, ikki boshli ilon tasvirlangan “amulet”, bugungi kunda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyining eng nodir eksponatlaridan biriga aylangan (Rasm). Bu topilma tadqiqotchilarning ko'plab ilmiy tortishuviga sabab bo'lgan[4]. Negaki, xlorid toshi O'rta Osiyoga xos bo'lmagan ma'dan bo'lib, yasallish texnikasi va texnologiyasi ham Farg'onaga xos bo'lmagan mazkur topilmaning yasalgan vaqti ham tadqiqotchilarni ancha o'ylantirgan. Keyingi yillarda, jumladan Mesopotamiya va Eron hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Markaziy Osiyo arxeologiyasida uchraydigan xlorid toshlardan yasalgan topilmalarning tarixiga ham oydinliklar kiritildi.

Xlorid tosh - yumshoq tarkibli, ko'proq yashil va kulrang bo'lib, shu toshdan yasalgan ashyolar tashqi tarafidan chizib va o'yib, gohida boshqa rangli toshlardan “ko'z” qo'yib ishlangan bezaklarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Hozirgi kungacha Mesopotamiyadan to Hind o'lkasigacha bo'lgan 30 ta yodgorlikdan 300 dan ortiq shunday ashyolar topilgan. Bu buyumlar shakllari va ularda ifodalangan tasvirlarning bir-biriga yaqinligi bilan xarakterlanadi. Tosh idishlarda ifodalangan gliptik tasvirlar tadqiqotchilar tomonidan 12 ta motivga bo'lingan: jang qilayotgan real va fantastik hayvonlar, antropomorf tarzda ifodalangan mifologik personajlar, me'moriy ko'rinishlar, pillapoya shakllar va o'simliklar dunyosi ifodalangan tasvirlar[5]. Shaklan va gliptik jihatidan bir - biriga aynan o'xshaydigan, xlorid toshdan yasalgan idishlarning paydo bo'lishi to'g'risida fanda ancha tortishuvlar bo'lib o'tgan. G. Frankfort bu idishlarni Mesopotamiya ustalari yasagan degan bo'lsa, L. Vulli janubi-sharqiy Eronni, S. Pigott esa Balujistonni ushbu idishlarning yasalgan joyi sifatida e'tirof etgan[6].

G. Frankfortning fikricha Mesopotamiyada xlorit toshdan yasalgan idishlar ilk dinastiyalar (I, II, III) davridan boshlab uchraydi va vaqt o'tgan sayin tasviriy ifodalar soddalashib borgan[7]. So'nggi tadqiqotlar natijasida ushbu idishlarning xronologik davri ham aniqlandi[8].

F. Koll Eronning Kerman viloyatida, Tepa Yaxya yodgorligi yaqinida xlorid toshlarning makoni va idishlar yasaydigan ustaxonasini topganidan so'ng, arxeologiya ilmida xlorid toshlarning «vatani» masalasi ham o'z yechimini topdi[9]. K. Lamberg-Korlovskiy esa xlorid toshdan yasalgan idishlar faqat eksport uchun yasalgan deb hisoblaydi[10].

Farg'onadan topilgan, xlorid toshdan yasalgan buyum ham Tepa Yaxya ustaxonasi an'anasi uslubida yasalgan. U qadimgi eronliklar tomonidan yasalgan va ma'dan izlovchilar tomonidan qoldirilgan noyob arxeologik topilma bo'lib, biz o'rganayotgan mavzu uchun ashyoviy dalil bo'lib hizmat qiladi. Tadqiqotchilar Namangan viloyati Xak va Aflatun topilmalarining ildizlarini ham Erondan izlashgan [11].

Toshkent vohasidan topilgan argelit toshdan yasalgan muhr yoki Zarafshon vohasi Jom qishlog'idan topilgan silindr shaklli muhrning topilishi ham Qadimgi Sharq shaharlari aholisining O'rta Osiyo bo'ylab yurganligidan dalolat beradi.

Ushbu muhrlar miloddan avvalgi III ming yillik oxiri II ming yillik boshlari bilan davrlashtirilgan [12].

Xlorid kabi miloddan avvalgi III ming yillikda madaniyatlararo keng tarqalgan mineral manbalardan biri - argelidtan yasalgan ashyolardir. Bunday ashyolar mil.av. III ming yillik oxiri II ming yillik boshida Mesopotamiya (Kish, Tello, Ur), Eron (Suz, Tepa Musiyan, Tepa Ali-Abad, Tepa Xissar, Shaxdod, Shaxri So'xta), Janubiy Turkmaniston, Afg'oniston yodgorliklarida keng tarqalgan[13]. Argelit mineralining makoni Eron, Afg'oniston, Pokiston va O'rta Osiyo hisoblanadi[14]. Argelidtan yasalgan taqinchoqlar, muhrlar, ayollar kosmetikasida ishlatiladigan mitti idishlar, oltin sirg'alarining ko'zlari alebastr bilan to'ldirilganligi ko'plab yodgorliklarda kuzatilgan[15]. Alebastrdan yasalgan topilmalar, ularning tarqalishi, tipologiyasi hamda xronologiyasi M. Kasanova tomonidan ishlab chiqilgan. U ishlab chiqqan xronologik jadvalga asosan Toshkent va Zarafshon vohalaridan topilgan alebastrdan yasalgan muhrlar mil.av. III ming yillik oxirlariga oid bo'lib, Toshkent vohasidan topilgan muhr qadimgi eronliklar, Zarafshon vohasidan topilgan silindr shaklli muhr Xarappa madaniyatiga oidligini ko'rsatmoqda[16].

Madaniyatlararo tarqalgan yana bir ashyo fayansdan yasalgan topilmalar bo'lib, buyrak shaklidagi «ilohiy» idishlar, kichik hajmli kosa shaklli idishlar, har xil taqinchoqlar majmuasidan iborat. Jarqo'ton yodgorligining ilk davriga oid qatlamlaridan ushbu idishlar va taqinchoqlar ko'plab topilganki, bu topilmalar ham yodgorlikning xronologiyasini aniqlashda katta rol o'ynaydi. Buyrak shaklidagi fayansdan yasalgan idishlar Mesopotamiyadan ko'ra Xarappa yodgorliklarida ko'proq uchraydi. Shuning uchun Dyuring Kaspers bu idishlarni Xarappa madaniyatiga xos deb hisoblaydi[17]. Olimning fikrini Jarqo'tondan topilgan fayans idish va undagi «pikal» daraxtining ifodasi ham isbotlaydi Ma'lumki «pikal» daraxti faqat Hindiston va Pokiston hududlariga xos bo'lgan o'simliklar dunyosiga kiradi. Fayansdan ishlangan va «pikal» tasvirlangan idishlar Hind-Mesopotamiya hududlaridagi Asmara[18], Tellodagi Ishtar ibodatxonasidan[19], Tell Brak yodgorligidan[20], Hindistonning deyarli barcha bronza davri yodgorliklaridan topilgan[21]. Eslatib o'tilgan yodgorliklardan topilgan, fayansdan yasalgan idishlar Jarqo'tondan topilgan idishlarga o'xshash bo'lib, mil.av. XIX-XVIII asrning birinchi yarmi bilan davrlashtirilgan.

Bronza davrida madaniyatlararo juda keng tarqalgan, fil suyagidan yasalgan predmetlar bo'lib, ular kvadrat, doira, tayoqcha shakllaridadir. Yuza va yon tomonlariga aylana ko'rinishidagi bezakning chizilishi xarakterlidir. Tayoqcha ko'rinishli fil suyagidan yasalgan predmetlarga eng kam, 1-3 ta aylana chizilgan bo'lsa, kvadrat shaklli predmetlarda 5-11 tagacha, aylana shaklli predmetlarda esa 9-11 tadan aylana chizilgan. Ushbu predmetlarning vazifasi xususida savdoga bag'ishlangan qismda alohida to'xtalamiz. Hozir esa uning tarqalish geografiyasi va yoshi xususidagi fikrlar bilan chegaralansak. Ushbu predmetlarning tarqalish geografiyasi Xarappa madaniyatining tarqalish geografiyasiga mos keladi va ishonch bilan aytish mumkinki, u Xarappa madaniyatining ta'sir doirasidagi hududlarda tarqalgan. Jarqo'ton yodgorligining №4 tepaligidan, Jarqo'ton davri qatlamidan fil suyagidan yasalgan ikkita kvadrat shaklidagi shunday predmetlar topilgan bo'lib, xuddi shunday ashyolar Altindepe[22], Xarappa, Maxenjodaro, Chanxudaro[23], Iroq hududida Jamdet Nasr[24] kabi ko'plab yodgorliklarda qayd etilgan va mil.av. II ming yillik boshlari bilan davrlashtirilgan.

Qadimgi Sharq xalqlariga xos bo'lgan, O'rta Osiyoning ko'plab yodgorliklaridan topilayotgan qadoq (giryra) toshlarning topilishi qadimgi xalqlar o'rtasidagi aloqalardan darak beradi. Qadoq toshlar Zarafshon vohasidagi Sarazm, Ko'ktepa[25], Farg'ona vodiysidagi Chust[26],

Surxon vohasidagi Sopollitepa va Jarqo'ton[27], Janubiy Tojikiston hududida joylashgan Gilot[28] yodgorliklaridan ko'plab topilgan. Ushbu oq toshdan yasalgan predmetlar ko'tarishga qulay bo'lgan dastaga ega bo'lib, shaklan sportchilar ko'taridagan toshlarga o'xshab ketadi va og'irligi 30 kilogramgacha boradi, ammo mazkur predmetlarning vazifasi masalasi noma'lumligicha qolmoqda.

Keltirilgan ma'lumotlar O'rta Osiyo xalqlarining Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi aholisi bilan madaniy aloqalari haqidagi ashyoviy manbalar hisoblanadi. Ushbu madaniy aloqalar zaminida bu xududlar o'rtasida insoniyat tarixidagi

eng qadimgi madaniy va savdo yo'llarining, xalqlarning o'zaro madaniy aloqalariga asos solinganligining guvohi va ashyoviy manbalari bo'lib hizmat qiladi.

O'zbekiston va unga qo'shni hududlardan topilgan, Qadimgi Sharq madaniyatlariga xos bo'lgan ashyolarga e'tibor bersak, topilgan arxeologik manbalarning inson hayotida egallagan vazifasini aniqlash mushkulroq bo'lib, ko'proq ilohiylikka, diniy qarashlarga dahldor ekanligi haqiqatga yaqin. Garchi og'ir bo'lsada "birinchi sivilizatsiya" vakillari bu predmetlarni o'zlari bilan olib yurishgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Tobler R. Excavations at Tepe Gavra. V.2. Philadelphia, 1950.
2. Herrmann G. Lapis Lazuli the Early Phaze of Trade. – Iraq, v.30, 1968.
3. Delmas A.B, Cazanova M. The Lapis Lazuli Sources in the Ancient East. –South Asian Archaeology 1987. P 1. Rome, 1990
4. Воронец М.Э. Каменное изображение змей из кишлака Сох Ферганской области. М. 1956. КСИИМКА, 61;
5. Frankfort H. The Art and Architecture of the Ancient Orient. - L., 1977. - P. 39-40.
6. Frankfort H. The Art and Architecture of the Ancient Orient. - L., 1977. - P. 40; Woolley L. The Development of Sumerian Art. - N.Y. 1935. - P.96; Piggott S. Prehistorik India. - L., 1950. - P.119.
7. Frankfort H. The Art and Architecture of the Ancient Orient. - L., 1977. - P. 41.
8. Amiet P. L'age des echanges inter-iraniens 3500-1700 avant. - Paris, 1986. - P.133.
9. Kohl Ph.L. Central Asia (Western Turkestan): Neolithik to the Early Iron Age ... – P. 154-162.
10. Lamberg-Karlovsky. Third Millenium Models of Exchange and Models of Production // Ancient Civilizations and Trade. - Albuquerque, 1975. - P. 358.
11. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА. Вып.118, М.. 1962.
12. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). Ташкент, 2002.
13. Casanova M. La vaisstllt d'albatre de Mesopotamie, d'Iran et d'Asia Centrale aux III et II Millenaires avant J.-C. MMAFAC // Memoires de la mission archeologie orientale. T. IV. - Paris, 1991. - P. 73-74.
14. Casanova M. La vaisstllt d'albatre de Mesopotamie ... – P. 39.
15. Шайдуллаев Ш.Б., Аванесова Н.А. Қадимги Бактрия олтинлари // Фан ва турмуш. 2000, - № 1, - Б. 8.
16. Casanova M. La vaisstllt d'albatre de Mesopotamie ... – P. 49.
17. During Caspers E. Some Motifs as Evidence For Maritime Contact Between Sumer and Indus Valley // Persica, V, 1970. - P. 112-114.
18. Frankfort H. Tell Asmar, Khafadje and Khorsabad // OIP, 16, 1933. - P. 52. - Fig. 32.
19. Parrot A. Le Temple D'Ishtar. - Paris, 1956. - Fig.93.
20. Mallovan M. Excavations at Brak and chagar Bazar. - Iraq, IX, 1947. - P. 39-40.
21. Маккей Э. Древнейшая культура долины Инда. -М.: 1951; Mackay E. Early Indus civilizations. -London, 1948.
22. Ганялин А.Ф. Раскопки в 1959-1961 гг. на Алтын-депе // СА. 1967, 4. - С. 216. - Рис.6.
23. Gupta S.P. Archaeology of Soviet Central Asia and the Indian Border lands. Vol.II. B.R. Publishing corporation. - Delhi, 1979. - P.167. - Fig. 3.17.
24. Matthews R.J. Defining the style of the period: Jemdet Nasr 1926-28 // IRAQ, Volume LIV, 1992. - Fig.12
25. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). Ташкент, 2002.
26. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА. Вып.118, М.. 1962.
27. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы на юге Узбекистана. Ташкент, «ФАН», 1977.
28. www.dainst.de